

## UYG‘UR ALIFBOSI O‘ZGARISHLARINING UYG‘UR TABOBAT ATAMALARI LEKSIK QATLAMIGA TA‘SIRI

Gisarov Farhod

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Maqolada Xitoy Xalq Respublikasi Shinjon Uyg‘ur avtonom okrugida an‘anaviy uyg‘ur tabobati (AUT) darsligi sifatida qo‘llanib kelinayotgan “Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi” entsiklopediyasi va unda jamlangan ‘an‘anaviy uyg‘ur tabobati (AUT)da ishlatiladigan dorivorlik xususiyatiga ega bo‘lgan o‘simliklar nomlari, turli minerallar va ma‘danlarning nomlarini o‘z ichiga olgan uyg‘ur xalq tabobati atamalari misolida uyg‘ur alifbosi tarixida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarning leksik jihatlariga e‘tibor qaratiladi hamda bunday o‘zgarishlarning terminologiya taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil etiladi.*

*Tabobat atamalarning yasalishi va ularning boshqa tillardagi variantlari o‘rtasidagi bog‘liqlik jihatlari, uyg‘ur tilidagi tabobat atamalarning taraqqiyot jarayonida yoyilish yo‘llari, bu sabab va omillarning uyg‘urshunoslik fani va tabobat terminologiyasi rivojidadagi ahamiyati masalalariga e‘tibor qaratiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Xalq tili, uyg‘ur tili, tabobat atamalari, tilshunoslik ilmi, an‘anaviy uyg‘ur alifbosi, alifbo islohoti, lotin harflari, dorivor o‘simliklar nomlari*

### ABSTRACT

*The article focuses on the lexical aspects of the changes that have occurred in the history of the Uyghur alphabet, using the encyclopedia "Uyghur Medicine Science of Raw Materials" used as a textbook of traditional Uyghur medicine (TUM) in the Xinjiang Uyghur Autonomous Region of the People's Republic of China, and the Uyghur folk medicine terms that include the names of medicinal plants used in TUM, the names of various minerals and ores, and analyzes the significance of such changes in the development of terminology.*

*The article focuses on the relationship between the formation of medical terms and their variants in other languages, the ways in which medical terms in the Uyghur language spread during their development, and the significance of these reasons and factors in the development of Uyghur studies and medical terminology.*

***Keywords:** Folk language, Uyghur language, medical terms, linguistics, traditional Uyghur alphabet, alphabet reform, Latin letters, names of medicinal plants*

## KIRISH

Alifbo islohotidan, eng avvalo, davlat oldida turgan ta'lim tizimini va xalq maorifini milliy lashtirish borasidagi vazifalarni amalga oshirishga bevosita xizmat qilishi maqsad qilingan edi.

Alifbo islohotiga sabab bo'lgan omillarni ikkiga ajratish mumkin, birinchisi arab alifbosiga asoslangan yozuvning turkiy tillar fonetik xususiyatlarini to'liq ifodalab bera olmasligi va mos kelmasligi, ikkinchisi esa lotin harflarining boy "til faktlari"ga ko'proq mos kelishiborasidagi ilmiy yondoshuvlar edi. "Turkiy xalqlarning tarixan qabul qilingan ko'pgina alifbolari ham shu muammolarga duch kelgan. Ming yildan ortiq vaqtdan beri qo'llanib kelinayotgan arab alifbosini isloh qilish g'oyasi 19-asr o'rtalarida M.F. Oxundov tomonidan ilgari surilgan edi."<sup>1</sup>

Lotin harflari asosidagi alifbo turkiy xalqlarning tarixiy izlanishlari va keng integratsiyalashuviga javob bergani uchun qabul qilingan. 1991-yilda SSSR parchalanganidan keyin beshta mustaqil turkiy davlat tuzildi: Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston va Turkmaniston. Ular orasida Ozarbayjon, O'zbekiston va Turkmaniston lotin alifbosiga o'tgan bo'lsa, Qozog'iston va Qirg'izistonda lotin alifbosiga o'tish uchun biroz vaqt kerak bo'ldi. Rossiya Federatsiyasining Boshqirdiston, Chuvashiston, Tatariston, Yoqutiston, Xakasiya va Tuva kabi respublikalarida hali ham kirill alifbosi qo'llaniladi.

Turkiy xalqlardan biri bo'lgan uyg'urlarning qadim tarixdan buyon hujjat, vasiqa, tarixiy va adabiy asarlarni yozib qoldirishda qo'llab kelgan yozuvlari bo'lib, uyg'urlar turli tarixiy davrlarda turli yozuvlardan foydalanib kelishgan.

Hozirgi vaqtda uyg'urlar 8ta unli va 24 ta undosh tovushlarni ifodalaydigan bir alifbodan foydalanadilar. Shuning bilan birgalikda uyg'urlar uch xil yozuv shakllaridan ham foydalanadilar.

UEY) ئەرەب ھەرپلىرى ئاساسىدىكى ئۇيغۇر كونا يېزىقى

1. Arab yozuvi asosidagi eski yozuv turi,

ULY) لاتین ھەرپلىرى ئاساسىدىكى ئۇيغۇر لاتین يېزىقى

2. Lotin harflari asosidagi Uyg'ur Lotin yozuv turi,

USY) كرىل ھەرپلىرى ئاساسىدىكى ئۇيغۇر كرىل يېزىقى

3. Kiril harflari asosidagi slavyan yozuvi turi.

Bulardan tashqari XX asrning 60-80-yillarida Uyg'ur Avtonom rayonida qo'llanilgan Pin'in yozuvi ham mavjud bo'lgan va u ham ئۇيغۇر يېڭى يېزىقى (Uyoqur Yengi Yeziki \ UYY) Uyg'ur Yengi yaziqi, Uyg'ur yangi yozuvi deb atalgan.

<sup>1</sup> Kazimi Parviz Firudin Oglu. Ijtimoiy – madaniy muloqotda til va alifbo (Ozarbayjon tili tarixi asosida, qiyosiy misollar). Maqola. Boku Davlat Universiteti, dotsent, falsafa fanlari doktori, ORCID: - [0000-0001-5577-4773] <https://cyberleninka.ru/article/n/yazyk-i-alfavit-v-sotsialno-kulturnom-kommunikatsii-na-osnove-istorii-azerbaydzhanskogo-yazyka-sravnitelnyh-primerov/viewer>.

1984-yil 1-yanvardan boshlab Shinjon-Uyg‘ur Avtonom rayoni ( Xinjiang Uyghur Autonomous Region) davlat idora, tashkilot hamda umumiy va kasbiy ta‘lim tarbiya muassasalarida, ommaviy axborot vositalari, nashriyot, matbuot tarmoqlarida ish yuritish va hujjatchilikda rasman yangi uyg‘ur alifbosi joriy qilindi.

Ushbu ijtimoiy-siyosiy tadbirning amalga oshirilishiga 1982-yil 13-sentyabrda Shinjon-Uyg‘ur Avtonom rayonida ma‘qullangan “Shinjon-Uyg‘ur Avtonom rayoni V-Xalq Qurultoyi Doimiy Komitetining Uyg‘ur, Qozoq eski yozuvlarini umumiy (yuzlik) qo‘llanishi to‘g‘risida”gi Qarori (1983, 44 raqamli hujjat) asos bo‘ldi.

E‘lon qilingan mazkur qarorga ko‘ra, yangi uyg‘ur alifbosi quyidagi maqsad va vazifalarni bajarishi ko‘zda tutildi:

1-uyg‘ur yozuvining yangi alifbosi Hozirgi zamon yangi uyg‘ur tili fonema tizimi va yozuv an‘anasiga asosan tuzildi.

2-uyg‘ur alifbosi arab alifbosi asosida shakllangan 32 ta harfdan tarkib topdi.

### **MUHOKAMA**

Ma‘lumki, yozuv xalqning yuksak madaniyatidan dalolatdir. Yozuv til taraqqiyotidan keyin paydo bo‘ladi, u tilni almashish, muloqot qilish, boyitish, rivojlantirish vositasidir; Arxeologik qazishmalar va yozma yodgorliklarga asoslanib aytish mumkinki, milodiy V asrda uyg‘urlar miloddan avvalgi III asrda O‘rxon-Yenisey va keyingi so‘g‘d yozuvlari asosida yaratilgan qadimgi uyg‘ur yozuvidan foydalanganlar. Uyg‘urlar to‘xar, kuchar, xo‘tan yozuvlaridan ham foydalanganlar. Uyg‘ur tabobatidan ko‘plab retseptlar an‘anaviy Xitoy va Tibet tibbiyotida qo‘llaniladi.

Xitoy manbalarida miloddan avvalgi 770–221 yillar “Boshqa xalqlarning samarali davolash usullari va retseptlari to‘g‘risida”gi eng qadimgi mumtoz tibbiyot kitobida uyg‘urlarning tabiiy sharoiti, kasallik turlari, davolash usullari quyidagicha ta‘riflangan: “G‘arbning oltini, nefritning vatani, yerlari cheksiz, tuproqlari qumli va toshloq, shamol ko‘p. Xalq, asosan, tog‘da yashaydi, jun kiyim kiyib, yog‘li, to‘yimli taomlar iste‘mol qiladi, buning natijasida organizmi tashqi ta‘sirlardan yaxshi himoyalangan, ichki a‘zolari kasal bo‘lsa, zahar va kuchli dori vositalari bilan davolanadi. Shuning uchun ham bizga kuchli dori-darmon va zaharlar G‘arb davlatlaridan, ya‘ni uyg‘urlardan kelgan.

Miloddan avvalgi 3-asrda Qin sulolasining "Tagu daryosi yozuvlari" va "Xorijiy tibbiyot antologiyasi" asarlarida uyg‘urlar tomonidan keng qo‘llanilgan vino, nefrit, chili, atirgul barglari va za‘faronan tayyorlangan dori-darmonlar alohida ta‘riflangan. Xitoyning "G‘arbiy Xan va G‘arbiy hududlar" tarixiy yozuvida elchi Chjan Chenning Uyg‘ur hududidan ko‘plab dorivor o‘simliklar, dori-darmonlar, mevalar va turli urug‘lar olib kelgani haqida hikoya qilinadi. Ular dorixonalar

ochgan, tibbiyot bilan shug‘ullangan, dars bergan, ba’zilari esa imperator saroyida xizmat qilgan va yuqori lavozimlarni egallagan. Uyg‘ur savdogarlari Changyanga dorivor o‘tlar, paxta, vino va ko‘plab nodir tovarlar olib kelishdi va u erdan Uyg‘ur mintaqasiga ipak va chinni olib kelishdi. Uyg‘urlar Hindiston, Eron, Vizantiya va arab mamlakatlari bilan ham savdo-sotiq qilganlar. Dengiz savdo yo‘llari endigina rivojlana boshlagan qadim zamonlarda uyg‘urlar ham Sharq, ham G‘arb bilan keng aloqalar o‘rnatib, insoniyatning madaniyat almashinuvi, ilmiy boyishi va hamkorligiga hissa qo‘shgan. Bu esa Buyuk Ipak yo‘lidagi uyg‘ur hududining o‘rta asrlarda gullab-yashnashi va rivojlanishining sabablaridan biri edi.

Uyg‘ur tabobati o‘z yutuqlari bilan to‘xtab qolmay, doimo yangi kashfiyotlar va takomillashuvlar bilan boyib bordi. Yuan sulolasi davrida yozilgan 36 jildlik “Uyg‘ur tabobati retseptlari” kitobida va Min sulolasidan qolgan “Bingsau Ganmu Shiyi” kitobida qadimgi uyg‘urlar tomonidan xitoyliklarga noma‘lum bo‘lgan dori vositalari har tomonlama tasvirlangan.

Arslon Terzi o‘zining “O‘rta Osiyo va Hindistonda turklar tomonidan qurilgan sog‘liqni saqlash markazlari” nomli maqolasida Yuan sulolasi davrida uyg‘urlar poytaxt Dorun (hozirgi Hohxot)da Xubilayxonning yozgi qarorgohida, ikkinchisi Mo‘g‘ul imperiyasining yangi poytaxti Pekinda ikkita sog‘lomlashtirish markazi qurganligini yozadi.

Dunyoga mashhur turkiy olim, faylasuf, tilshunos, matematik va tabib Abu Nasr Forobiy 870 yilda Sirdaryoning Aris daryosi bo‘yida joylashgan Forob shahrida tug‘ilgan. Al-Forobiyning qalamiga mansub 160 asar qatorida 938 yilda yozilgan “Madinatul fazila” jahon tibbiyot jamiyati a‘zosi, taniqli olim, professor, tabib Suhail Anvar tomonidan nashr etilgan. Abu Ali ibn Sino: «Men o‘qigan kitobning muallifi Forobiydir», degan.

Qoraxoniylar davrida yashagan mashhur tabib va tadqiqotchi Imomiddin Koshg‘ariy Ibn Sino (Avitsenna)ning “Tib qonunlari” asarini uyg‘ur tilida talqin qilib, “Davolash haqida risola” nomli asar yozib, Sharqda nazariya va amaliy tibbiyotning uyg‘urlarda yanada keng tarqalishiga hissa qo‘shgan.

Qoraxoniylar davrida xizmat qilgan jahonga mashhur shoir, faylasuf, davlat arbobi Yusuf Xos Xojip ham tibbiy ma‘lumotga ega bo‘lgan. Uning mashhur “Mubarek bilim” she‘ri XI asr uyg‘ur adabiy tilining eng go‘zal namunasi, uyg‘ur madaniyat xazinasining bebaho marvaridlaridan biri, uyg‘ur xalqining faxri hisoblanadi. Yusuf Hos Hojip Balasag‘uniy bu kitobida tabiblar bilan qanday munosabatda bo‘lish, ularni qadrlash, mehnatini hurmat qilishga alohida e‘tibor beradi. Unda 4 element - qon, o‘t, shilimshiq va balg‘am kabi uyg‘ur tibbiyotining asoslariga e‘tibor qaratilgan. Ovqatlanayotganda nimalarga e‘tibor berish kerakligi va

ovqatlanayotganda qanday mahsulotlardan foydalanish kerakligi qayta-qayta aytib o‘tiladi.

“Divonu lug‘at it-turk” (Turkiy shevalar lug‘ati) ensiklopediyasining muallifi, atoqli olim Mahmud Qashqariy nafaqat mashhur tilshunos va qomusiy olim, balki tibbiyot, uning tarixi, turli kasalliklarni davolash usullari va usullarini, tibbiyot sohasidagi yangiliklarni ham yaxshi bilgan. Unda Uyg‘ur hududining tabiiy sharoiti, uyg‘urlarning urf-odatlarini, turmush tarzi, ovqatlanish madaniyati har tomonlama tasvirlangan. Ensiklopediyada o‘sha davrda keng tarqalgan kasallik turlari sanab o‘tilgan. Qon bosimi, uyqusizlik, vitiligo, o‘smalar, shamollash, bosh og‘rig‘i, tish og‘rig‘i, oshqozon yarasi kabi kasalliklarni davolash usullari, ayollarning yuzidagi pigment dog‘larining sabablari batafsil yoritilgan. Sog‘likni saqlash va sog‘lom turmush tarzini olib borish haqida batafsil ma‘lumot berilgan.

XII asrda yashagan mashhur tilshunos, qomusiy olim, tabib Jamoldin Qarshi Qashg‘ardagi Sajiya madrasasida uyg‘ur tabobatidan ma‘ruza o‘qigan. 1282-yilda u arab tilida bir necha ming tibbiy atamalarni sanab o‘tgan “Soraq” nomli katta izohli lug‘at yozadi. Bu asar 1910 yilda Hindistonda qayta nashr etilgan va butun dunyoga tarqatilgan. Muallif madrasada joylashgan, son-sanoqsiz kitoblarni jamlagan ulkan kutubxona haqida gapiradi.

Hind manbalaridan ma‘lumki, uyg‘ur tabobatining gullab-yashnashining ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi va uning shuhrati yunonlargacha yetib borgan va ular hatto Gippokrat bilan birga o‘rgangan. Tarixiy kitoblarda, yozuvlarda va kuzatishlarda uyg‘ur tibbiyotining ham shakllantirishda muvaffaqiyatga erishganligi to‘g‘risida dalillarni topish mumkin, asosiy tamoyillari bugungi kunda ham qo‘llaniladi. U dorivor preparatlar turlarining xilma-xilligiga katta ahamiyat bergan.

Mahmud Qashqariy o‘zining “Turkiy shevalar lug‘ati”da 150 ga yaqin dori nomi, 50 ga yaqin kasallik nomi, shuningdek, ko‘plab retseptlarni eslatib o‘tgan bo‘lsa, mashhur uyg‘ur tabibi Tajalli 7000 dorini bilgan va 5000 dorivor preparatlar yaratgan. 7-8-asrlar Uyghur meditsinasining eng yuksek rivojlanish davri bolib, u shu kungacha fan sifatida sistemalangan. Aynan shu davrda “Dasturul ilaj” – “Davolash qoidalari”, “Aqzari tibbiyot” – “Farmatsevtika tabobati” kabi mashhur kitoblar dunyoga keldi.

Xitoy Song sulolasi (906–960) manbalarida uyg‘ur tabibi Nanto Xitoyga kelib, o‘zi bilan xitoylarga noma‘lum bo‘lgan ko‘plab dori-darmonlarni olib kelganligi qayd etilgan. Xitoy tibbiyot olimi Li Shizhen (1518-1593) o‘z ma‘ruzasida uyg‘ur tabobatida 103 xil dorivor o‘t borligini yozgan.

19-asrda yashagan Sopaxun ismli shifokor bemorning tashqi ko‘rinishiga qarab tashxis qo‘yish qobiliyatiga ega bo‘lib, diagnostikaning yangi yo‘nalishini joriy

qilgan bo'lsa, yuqorida tilga olingan tibbiyot yoritgichi, 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida yashagan Tajalli asab kasalliklarini davolash uchun miya jarrohligini tibbiyot amaliyotiga kiritdi. Shuningdek, u rekonstruktiv jarrohlik (transplantatsiya), masalan, sun'iy qovurg'a implantatsiyasi va xatarli o'smalarni ilon moyi bilan davolashni joriy qildi<sup>2</sup>.

### **NATIJALAR**

Uyg'ur tabobati bundan besh ming yil avval paydo bo'lgan. Jahonga mashhur madaniyat yodgorliklari, arxeologik qazishmalar davomida topilgan tarixiy materiallar va bundan dalolat beruvchi boshqa manbalar London, Parij, Moskva, Sankt-Peterburg, Tokio, Dehli va boshqa dunyo shaharlaridagi muzeylarda saqlanmoqda. Tibbiyot sohasida yuksak marralarni qo'lga kiritgan, asli uyg'ur millatiga mansub mashhur tabiblar, farmakologlar tibbiyot sohasida juda ko'p bilim va yangiliklar qoldirgan. Uyg'ur tabobati uyg'ur xalqining bebaho madaniy meroslaridan biridir. Keng, serhosil zaminda yashagan uyg'urlarning ajdodlari salomatlikni saqlash, turli kasalliklarning oldini olish va davolashda ulkan hissa qo'shgan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan adabiyotlar qatorida 2012 yilda Shinjong Xalq Sixxiya nashriyotida chop etilgan II qismdan iborat "Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi" entsiklopediyasi<sup>3</sup> ni eslatish o'rinli bo'ladi.

Ushbu entsiklopedik qo'llanmada uyg'ur tabobatida qo'llaniladigan ko'plab o'simliklarning nomlari (tabobat atamaları) jamlangan bo'lib, qo'llanma Uyg'ur tabobatchilik-dorigarchilik (farmatsevtika) oliy maktab (O'quv yurt)lari uchun darslik vazifasini o'tab kelmoqda.

Ushbu qo'llanmada keltirilgan dorivor o'simliklar va ma'danlar nomlarining yozuvda ifodalanishida o'ziga xos e'tiborli jihatlar mavjud. Uyg'ur alifbosi o'z boshidan kechirgan turli yillardagi o'zgartirishlar uyg'ur tabobati atamalarining imlo va talaffuz qatlamlariga jiddiy ta'sir ko'rsatgan sabablardan hisoblanadi.

Adirasman<sup>4</sup> ئادراسمان . Бошқа номлари: Адрасман чўпи, Барги Хурмил.

Лот. Herba Peganum Harmala, Инг. Common Peganum Herb.

Peganum harmala L.- Оддий исирик-Гармала обькновенная- Ҳармал, Исфанд-Испанд, Сипанд<sup>5</sup>

<sup>2</sup> Традиции уйгурской медицины. Манба: "Uyg'ur urf-odatları va an'analari" kitobi (muallif: Masimjon Zulpikarov). <https://doppalife.com/kk/post-traditsii-uygurskoj-meditsiny>

<sup>3</sup> Abdurahim Yusup., Ali Hoji Emchi. Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi. Shinjong Xalq Sixxiya nashriyoti. 2012 y. II qismli. 1130 b. بىرىنچى توم. / Umumiy qism. file:///C:/Users/User/Desktop.1-qism.; pdf. B. – 3.

<sup>4</sup> Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi. 1-qism. B. – 1093.

<sup>5</sup> Доривор ўсимликларнинг лотинча-ўзбекча-русча-арабча ва форс-тожикча луғати. В – 83.

Адэм گیاه نادهمگیاھ . Бошқа номлари Ябружи сэнэм, Мардум гиях, Мехригиях. Лот. Radix Panax qinseng, Инг. Ginseng<sup>6</sup>.

Мехригийёх-Оносма “Ослиное ухо”- Onosmaechioides L.-Узн ал –химор<sup>7</sup>.

Ades<sup>8</sup> ئەدەس . Бошқа номлари: Эдэс, Нэшик, Мэсур. Лот. Semen sens culinarius, Инг. Common sentil.

Адас (Аьйнун ҳарфи билан ёзилган)-Чечевица, Адас барри мурр, Адас ал-Маб<sup>9</sup>.

Aynilpiti uruqi<sup>10</sup> ئىنەلپىتتئورۇقى . Бошқа номлари: Хэбби Хибру, Тухуми Биданжир, Тухуми арандэ. Лот. Semen Ricinus communis, Инг. Castor bean.

Ricinus communis L.- Оддий канакунжут-Клещивина обыкновенная-Хирвоъ - Бид анжир<sup>11</sup>.

Aynula<sup>12</sup> ئەينۇلا - Бошқа номлари: Ужжас (ئۇجاس), Алу Бухар (ئالوبۇخار), Алу Бухара (ئالوبۇخارا). Лот. Fructus prunus tume, Инг.Smoked Plum, Dark Plum. (Слива японская).

Prunus domestica L. - Олхўри, Олхирот - Слива домашняя – Ижжос -Гирди олу, Олуйи сиёх, Олуйи Ҳирот<sup>13</sup>.

Ваунақ - بايناق

Boshqa nomlari: Ваунақ iltizi, Jo‘ngu bayniqi.

(939-b).

Baladur - بالادور

Boshqa nomlari: Hebbifahim, Hebbiqalb, Beladuri, Belanuvan.

(1079-b).

Balengu uruqi - نگو ئورۇقى باله

Boshqa nomlari: Buzuri Balengu, Tuxumi Balangu,

(759-b).

Banan - بانان

Boshqa nomlari: Kiyele, Kiyela,

(484-b).

Gavzeban chiniy - گاۋزبان چىنى

Boshqa nomi: Yarlik Gavzeban,

(433-b).

Gastrudiya o‘ti - گاسترودىيە ئوتى

<sup>6</sup> Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi. 1-qism. B. – 720.

<sup>7</sup> Доривор ўсимликларнинг лотинча-ўзбекча-русча-арабча ва форс-тожикча луғати. 170-б.

<sup>8</sup> Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi. 1-qism. B. – 539.

<sup>9</sup> Абу Райхон Беруний. Избранные произведения.IV-том. стр.625,626.

<sup>10</sup> Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi. 1-qism. B. – 577-б.

<sup>11</sup> Доривор ўсимликларнинг лотинча-ўзбекча-русча-арабча ва форс-тожикча луғати. 94-б.

<sup>12</sup> Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi. 1-qism. B. – 108.

<sup>13</sup> “Доривор ўсимликларнинг лотинча-ўзбекча-русча-арабча ва форс-тожикча луғати”. 91-бет.

Boshqa nomi: Gastrudiya o'ti iltizi.

(738-b).

Guli gavzeban - گولی گاؤزبان

Boshqa nomlari: Guli lisanu s Savr, Zehretul Lisani s Savr, Gavzeban ki po'l.

(801-b).

Gulember - گۆله مبه ر

Boshqa nomi: Iliy Gulambiriy.

(531-b).

Guliyasiman - گوليه سسمه ن

Boshqa nomi: Gulyasiman.

(926-b).

Darmina turkey - دهرمنه توركى

Boshqa nomlari: Sheyx Xurasaniy, Dermene turkiy, Sheyx.

(549-b).

Darchin - دارچين

Boshqa nomlari: Qirfe Salixe, Darchiniy.

79-b).

Dibiq - د بيق

Boshqa nomlari: Muyzijasliy, Muyzik.

(569-b).

Dipsakus - دپساکوس

Boshqa nomlari: Dipsakus iltizi,

(997-b).

Durnaj aqrabiy - دۇرنه ج نه قره بى

Boshqa nomi: Durunji Aqrabiy.

(789-b).

Do'ana - دولانا

Boshqa nomlari: Dulan, Dulana.

(816-b).

Javshir - جاؤشیر

Boshqa nomlari: Jovshir, Gavshir, Guvshir.

315-b).

Jamka - جامكا

Boshqa nomlari keltirilmagan,

(406-b).

Jigde chichigi - جىگده چىچىگى

Boshqa nomlari: Zehrul G'ubeyr, Guli Cho'pdane, Sanjidke pul.



(979-b).

Jinaste - جينهسته

Boshqa nomlari: Falisa, Palisa.

112-b).

Jinkivize uruqi - جنكیۆنزه ئورۇقى

Boshqa nomlari: Babchi, Sanai Sabui, Penivar. (1124-b).

Jintiyana - جنتیانانا

Boshqa nomlari: Davail Hayye, Kepul

(813-b).

Juyuz - جویوز

Boshqa nomlari: Juzbuva, Juzbo‘ya, Jaypal.

(1077-b).

Jo‘nggu mandari - جۇڭگو مانداری

(923-b).

Jezbuzar - جه زبۇزار

Boshqa nomi: Jezbuzar iltizi.

(747-b).

Zig‘ir uruqi - زىغىر ئورۇقى

Boshqa nomlari: Bezrul Ketan, Tuxumi Katan, Aliske bix.

(860-b).

Zig‘iryag‘i - زىغىر يىغى

Boshqa nomi: Ravg‘ini Katan.

(862-b).

Zuptirumiy - زوپتى رومى

Boshqa nomlari: Zupti Rutep, Qetiran, Moyi Qarig‘ay.

(1073-b).

Zurembat - زۇره مبات

Boshqa nomlari: Uruqul Kafur, Zurembati Narkucho‘r.

(797-b).

Zeytun mevasi - زەيتۇن مېۋىسى

Boshqa nomi: Zeytunka pel. (487-b).

Zeytun yag‘i - زە يتون يىغى

Boshqa nomlari: Dehenul zeyt, Ravg‘ini zeytun.

(1081-b).

Izxir makkiy - ئىزخىر مەككى

Boshqa nomlari: Mekke Chig‘i, Kah Mekkiy, Rusagas.

(807-b).

Ispig‘ul - ئىسپىغول

Boshqa nomlari: Bazrul Qutuna, Espig‘ul.

(385-b).

Kavrek - كه ژره ك

Boshqa nomlari: Narjiy, Kavrek iltizi.

(1102-b).

Katira - كه تيرا

Boshqa nomlari: Samg‘i Petida, Samg‘i Qitad, Katiran Gundiy.

(866-b).

Kathindiy - كاتهندي

Boshqa nomlari: Kat, Kiti hindiy.

(1047-b).

Kahu - كاهو

Boshqa nomlari: O‘suk, Xas, Kahu, Qareso‘ne.

(68-b).

Kekre uruqi - كه كه ئورۇقى

Boshqa nomi: Kamadarius.

338 b).

Kepa - كه په

Boshqa nomlari: Kepe iltizi, Bixi Kabir.

(501-b).

Kerman - كه رمان

Boshqa nomlari: Kerman cho‘pi, Kerman iltizi.

(760-b).

Kerepshe - كه ره پشه

Boshqa nomlari: Kerepsi, Bargi Kerefshe, Ajmud.

336 b).

Magnuliya - ماگنوليا

(884-b).

Mazariyun - مازاريون

Boshqa nomlari: Bazrul Varaalmisi, Tuxumi Mazariyun.

192-b).

Malika nigini - مالکه نڭنى

Boshqanomi: Malike nigini mevesi.

(1080-b).

Malina - مالينا

Boshqanomi: Malina mevesi.

(975-b).

Mamirani chin - ماميرانچين

Boshqa nomlari: Mamirani Siyniy, Mamiran Chiniy.

(387-b).

Ustuquddus- اوستوقودوس

Boshqa nomlari: Unisul Arvah, Jorui dimag‘, Dimag‘ ka jaru. (158-b)

Ustuxudus-Lavanda Grecheskaya, “Dioskirid: “bu Ustuxuddus nomi ushbu o‘simlik keltiriladigan orolning nomidan olingan” deydi”

(Uyg‘ur tabobat ensiklopediyasida Ustuquddus deb yozilgan, Beruniy, Dioskrid, Ibn Masavayh, Ar Roziy asarlarida Ustuxudus deb keltirilgan. Internet sahifalarida ham Ustuxudus deb yozilgan.)

## **XULOSA**

Xulosa sifatida quyidagi fikrlarni o‘rinli deb qarash mumkin:

1. Qadimgi terminlar talaffuzi va yozuv shakllaridagi tafovutlar noshirchilikning darajasi bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Asarlarni qo‘lyozmalar va ko‘chirma namunalardan qayta ko‘chirish davomida ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yilganligi keyingi tadqiqot ishlari mobaynida muayyan terminga turli munosabatlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

2. Xitoy, Hindiston, Misr va Rum tabiblari tomonidan yaratilgan ulkan meroslar jahon tamadduniga qo‘shilgan ulkan xazinalar sifatida o‘ta muhim ahamiyatga ega.

3. Qadimgi tabiblar tomonidan ishlab chiqilgan tabiblik tajribalari hamda usullari tildan-tilga, ustozlardan shogirdlarga o‘tib saqlanib kelgan.

4. Termin so‘zlarning tildan tilga o‘zlashuvi jarayonida dominant til grammatik, morfologik, fonetik jihatlari o‘zlashtiruvchi tildagi shu kabi qoidalarga moslashtiriladi. Biroq bu moslashtirish jarayonida milliy tilning fonetik, fonologik, orfografik, morfologik xususiyatlari ustuvorlik qiladi.

5. So‘zlarning terminlashuvida ayrim leksikologik buzilishlar sodir bo‘ladi.

6. Uyg‘ur tabobati tarixi davomida uyg‘ur tabobatida ishlatilib kelinayotgan dorilar nomlariga qo‘yiladigan talablar majmuasi ishlab chiqilgan.

7. Uyg‘ur tabobatchilik-dorigarchilik (farmatsevtika) oliy maktab (O‘quv yurt)lari uchun darslik vazifasini o‘tab kelayotgan “Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi” ensiklopediyasida dorivor o‘simliklar va mevalar nomlari va atamalari tasniflangan asar hisoblanadi.

8. Qo‘llanma o‘simliklar nomlari bilan bog‘liq atamalarning leksik-etimologik, ijtimoiy-madaniy, semantik-fitonomik jihatlarni tahlil qilish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Abdurahim Yusup., Ali Hoji Emchi. Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi. Shinjong Xalq Sixxiya nashriyoti. 2012 y. II qism. 1130 b.
2. Shomiyeva A., Saidvaqqosov G‘. Uyg‘ur tili grammatikasi. Almata. 1967. B – 50.
3. Razzaqova O., To‘rakulova S. (2022). Terminologiya va uning tarixi. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(4), 905–908. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/364>
4. Dadaboyev H. O‘zbek Terminologiyasi: o‘quv qo‘llanma/ Hamidulla Dadaboyev. -Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 136 b.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2002.
6. Xələfov A.A. Kitابخana və cəmiyyət. Bakı, azərənəşr, 2013, 360 s.
7. Kramer S. Tarix şumerdən başlanır. Bakı, Mütərcim, 2009. 280 s.
8. Kazimi P.F. İnformasiya mühəndisliyi. Bakı, mütərcim, 2018, 260 s.
9. Kazimi P.F. Səfəvilər dövründə Azərbaycanca Kitابخana işi. Bakı, 2008. 180 s.
10. Kazimi P.F. Türk xalqlarının kitab və kitابخana mədəniyyəti. Bakı, 2012. 314 s.
11. Kazimi P.F. Türk xalqlarının kitab və kitابخana mədəniyyətinin mənbəşünslığı. Bakı, 2014. 136 s.